

“TASDIQLAYMAN”



Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti rektori

A.E. Absamatov

“23” 09 2025 yil

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Talabalar ittifoqi (Student Union)

faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

NIZOM

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Termiz iqtisodiyot va servis universiteti (keyingi o‘rinda — Universitet) Talabalar ittifoqi – Student union (keyingi o‘rinda — Ittifoq)ni tashkil etilishi, faoliyat yuritishi, tashkiliy tuzilmasi, vazifalari, huquq va majburiyatlari, moliyalashtirilishi hamda tugatilishi tartibini belgilaydi.

2. Ittifoq kunduzgi ta‘lim shaklida o‘qiydigan talabalarning (bundan keyin – talabalar) doimiy faoliyat yurituvchi vakolatli, maslahat beruvchi va muvofiqlashtiruvchi organi sifatida tashkil etiladi. Ittifoq bakalavriat va magistratura bosqichi talabalarini o‘z ichiga oladi.

3. Ittifoq o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun (2016 yil 14 sentyabr, O‘RQ-406-son), “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun (2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosatini amalga oshirishning samarali mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni (2023 yil 20 iyun), Universitet Ustavi, Ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksi hamda ushbu Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

4. Ittifoq o‘z faoliyatini mustaqillik, oshkoralik, demokratiya, qonuniylik, teng huquqlilik va ixtiyoriylik tamoyillari asosida olib boradi.

5. Ittifoq yuridik shaxs hisoblanmaydi va Universitet tarkibida faoliyat yuritadi. Ittifoqning moliyaviy operatsiyalari Universitet buxgalteriyasi orqali amalga oshiriladi.

6. Ittifoq o‘z ramziy belgilariga (logotip, bayroq, shior) ega bo‘lishi mumkin. Ramziy belgilar Talabalar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

II bob. Talabalar ittifoqining maqsad va vazifalari

7. Talabalar ittifoqining asosiy maqsadi – Universitet talabalarining huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish, talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning ta‘lim, ilmiy, madaniy va ijtimoiy

hayotdagi faol ishtirokini ta'minlash, liderlik salohiyati va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish hamda talabalarning intellektual, ma'naviy va kasbiy rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat.

8. Talabalar ittifoqining asosiy vazifalari:

- talabalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish;
- talabalar manfaatlariga daxldor ta'lim, ijtimoiy-maishiy va boshqa masalalarni hal etishda Universitet ma'muriyati bilan hamkorlik qilish;
- talabalarni Universitet boshqaruvida ishtirok etishga jalb etish hamda talabalarning o'zini o'zi boshqarish tizimini rivojlantirish;
- talabalarning liderlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- talabalarning ta'lim, ilmiy va innovatsion faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning ilmiy va kasbiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
- talabalar o'rtasida madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, sport va ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish va ularni muvofiqlashtirish;
- talabalarda sog'lom turmush tarzi, ekologik mas'uliyat, vatanparvarlik va universitet an'analariga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan targ'ibot va tadbirlarni tashkil etish;
- talabalarni Universitet faoliyati, ta'lim imkoniyatlari va yoshlar siyosatiga oid masalalar bo'yicha xabardor qilish;
- universitetning tarkibiy bo'linmalari bilan hamkorlikda talabalarning dam olishini mazmunli tashkil etish va ular uchun qulay ijtimoiy muhit yaratish;
- universitetlararo, mintaqalararo va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, talabalarni xalqaro tadbirlarda ishtirok etishga jalb etish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega yoshlar tashabbuslarini, xayriya va inklyuziv loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish;
- universitet hududida ekologik madaniyatni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish hamda "yashil universitet" tamoyillarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan yoki alohida yordamga ehtiyoj sezadigan talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni tashkil etish;
- ta'lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan talabalar tashabbuslari, akademik mentorlik, tutorlik va bilim almashinuvi platformalarini rivojlantirish;
- talabalarda sog'lom turmush tarzi, ekologik mas'uliyat va barqaror iste'mol madaniyatini shakllantirishga qaratilgan targ'ibot va tadbirlarni tashkil etish.
- talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

III bob. Ittifoqning tashkiliy tuzilmasi

9. Ittifoqning oliy boshqaruv organi Talabalar umumiy yig'ilishi hisoblanadi.

10. Ittifoqning tashkiliy tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- Talabalar umumiy yig'ilishi (oliy organ);
- Ittifoq Raisi;
- Ittifoq Rais o'rinbosari;
- Ittifoq Kotibi;
- Yo'nalishlar bo'yicha qo'mitalar (komitetlar);
- Fakultet talabalar kengashlari.

11. Ittifoq qoshida quyidagi doimiy qo'mitalar tashkil etiladi:

- ta'lim sifati va ilmiy faoliyat qo'mitasi;
- Talabalar hayoti va madaniy faoliyat qo'mitasi;
- Barqaror rivojlanish va ekologik tashabbuslar qo'mitasi;
- Ijtimoiy masalalar va volontyorlik qo'mitasi;
- Xalqaro hamkorlik va innovatsion loyihalar qo'mitasi;
- Axborot, media va kommunikatsiya qo'mitasi

12. Zarur hollarda Ittifoq Raisi yoki Talabalar umumiy yig'ilishi qarori bilan vaqtinchalik ishchi guruhlar va qo'shimcha qo'mitalar tashkil etilishi mumkin.

13. Har bir fakultetda fakultet talabalar kengashi tashkil etiladi. Fakultet talabalar kengashi o'z fakulteti talabalarining manfaatlarini ifodalaydi va Ittifoq bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

IV bob. Talabalar ittifoqining huquq va majburiyatlari

14. Talabalar ittifoqi quyidagi huquqlarga ega:

- talabalar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
- yoshlarni Universitet faoliyati va uning barcha bosqichlari haqida xabardor qilishni oshirish;
- yoshlar faolligini Universitet faoliyatining yangi va ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda oshirish;
- talaba yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishga, intellektual, axloqiy-estetik va madaniy dunyoqarashini kengaytirishga ko'maklashish;
- qonunchilikda taqiqlanmagan manbalar (grantlar, homiylar, biznes-loyihalardan qaytariladigan investitsiyalar) hisobiga o'z budjetini shakllantirish;
- talaba hayoti sifatini oshirish tadbirlari rejalarini tasdiqlash;

- aniq vazifalarni hal qilish uchun qo‘mitalar va ishchi guruhlar tashkil qilish;
- konferensiyalar, xakatonlar, debatlar, xayriya tadbirlari kabi tadbirlar tashkil qilish va o‘tkazish;
- talabalarni xalqaro sheriklik va loyihalarga jalb qilish;
- barqaror rivojlanish, ekologik madaniyatni rivojlantirish hamda universitet hududida yashil tashabbuslar va ekologik loyihalarni amalga oshirish
- Universitet Kengashi va boshqa boshqaruv qarorlar muhokamasida maslahat organi sifatida ishtirok etish.

15. Talabalar ittifoqi quyidagi majburiyatlarga ega:

- Universitet ustavi, ushbu Nizom, Universitet mahalliy hujjatlariga qat‘iy rioya qilish;
- Universitet vazifalari va ishlab chiqilgan dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashish;
- Ittifoq yig‘ilishlarida muntazam ishtirok etish;
- talabalarni o‘z faoliyati haqida doimiy xabardor qilish;
- talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga ko‘maklashish;
- universitetni barcha talabalar uchun xilma-xil, inklyuziv va qulay muhitga aylantirishga intilish;
- talabalar manfaatlarini aniqlash va faoliyatni tuzatish uchun so‘rovnomalar o‘tkazish;
- Ittifoq faoliyati to‘g‘risida Universitet rahbariyatiga muntazam hisobot berish.

V bob. Talabalar ittifoqining faoliyat yo‘nalishlari

16. Talabalar ittifoqi o‘z maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:

a) xalqaro hamkorlikni rivojlantirish:

- talabalarni xalqaro konferensiyalar, forumlar va akademik tadbirlarda ishtirok etishga jalb etish;
- talabalar uchun xalqaro ta‘lim va almashinuv dasturlarida ishtirok etishga ko‘maklashish;
- yozgi va qishki maktablar, ta‘lim dasturlari va boshqa xalqaro tashabbuslarni tashkil etishda ishtirok etish.

b) talabalarning ko‘nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish:

- talabalar o‘rtasida intellektual musobaqalar, olimpiadalar, viktorinalar va kvizlar tashkil etish;
- talabalar klublari faoliyatini tashkil qilish va qo‘llab-quvvatlash, jumladan debat, media va ta‘limiy klublar faoliyatini rivojlantirish;
- talabalarning ijodiy va ta‘limiy kontentlarini tayyorlash hamda Universitetning axborot platformalari orqali tarqatish;
- talabalar tashabbusi asosida innovatsion g‘oyalar, startap va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

d) ijtimoiy va xayriya faoliyatini amalga oshirish:

- ijtimoiy ahamiyatga ega xayriya tadbirlari, ko'ngillilik aksiyalari va ekologik tashabbuslarni tashkil etish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish;
- inklyuziv muhitni rivojlantirish va nogironligi bo'lgan talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga ko'maklashish.

e) Universitet imiji va talabalar faoliyatini targ'ib qilish:

- Ittifoq faoliyatini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritish;
- universitetning ijobiy imijini shakllantirishga qaratilgan axborot va targ'ibot ishlarini amalga oshirish;
- universitetda mavjud madaniy, ijodiy va sport klublari faoliyati bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

f) biznes va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash:

- talabalar ishtirokida biznes, ijtimoiy va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- talabalar tashabbusi asosida startap va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;
- talabalar loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida grantlar, stipendiyalar va boshqa rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish;
- Ittifoq faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy boshqaruv va baholash mexanizmlarini joriy etish.

VI bob. Talabalar ittifoqi Raisining vazifalari va vakolatlari

17. Talabalar ittifoqi Raisi talabalar orasidan 1 (bir) yil muddatga Talabalar umumiy yig'ilishi tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

18. Raislikka nomzodlar Ittifoq a'zolari tomonidan ko'rsatiladi. Nomzod universitetning kunduzgi ta'lim talabasi bo'lishi, kamida bir yil Ittifoq a'zosi sifatida faoliyat yuritgan bo'lishi va intizomiy jazo olmagan bo'lishi lozim.

19. Saylov komissiyasi Talabalar umumiy yig'ilishi tomonidan saylovdan kamida 15 kun oldin tashkil etiladi. Saylov komissiyasi saylov jarayonining adolatlilik va oshkoraligini ta'minlaydi.

20. Rais:

- Ittifoq faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;
- Ittifoq yig'ilishlarini chaqiradi va ularga raislik qiladi;
- Ittifoq nomidan Universitet ma'muriyati va boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarda ishtirok etadi;
- Ittifoq faoliyati bo'yicha hisobot tayyorlaydi va taqdim etadi;
- yo'nalish rahbarlari va qo'mitalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- zarur hollarda navbatdan tashqari yig'ilishlar chaqiradi;
- Ittifoq budjetidan maqsadli foydalanishni nazorat qiladi;

– Universitet Kengashi yig‘ilishlarida talabalar nomidan ishtirok etadi.

21. Rais o‘rinbosari Rais tomonidan tayinlanadi va Raisi tavsiyasi bilan Talabalar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Rais o‘rinbosari Rais yo‘qligida uning vazifalarini bajaradi.

22. Ittifoq Kotibi Rais tomonidan tayinlanadi. Kotib yig‘ilishlar bayonnomalarini yuritadi, hujjatlar almashinuvini tashkil etadi va Ittifoq arxivini saqlaydi.

23. Rais o‘z vazifalarini 30 kundan ortiq muddatda bajara olmagan taqdirda, uning vakolatlari Rais o‘rinbosariga o‘tadi. 60 kundan ortiq muddatda bajara olmagan hollarda Talabalar umumiy yig‘ilishi qayta saylov o‘tkazadi.

24. Rais quyidagi hollarda muddatidan oldin vazifasidan ozod etilishi mumkin:

- shaxsiy ariza asosida;
- Universitet talabasidan chetlatilganda;
- Ittifoq Nizomini muntazam buzganda;
- o‘z vazifalarini bajarishdan bosh tortganda;
- Talabalar umumiy yig‘ilishi a‘zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi bilan.

VII bob. Ittifoq yig‘ilishlari va qaror qabul qilish tartibi

25. Ittifoq yig‘ilishlari har oyda kamida bir marta o‘tkaziladi. Zarur hollarda navbatdan tashqari yig‘ilishlar chaqirilishi mumkin.

26. Yig‘ilish Ittifoq a‘zolarining kamida yarmidam ko‘pi (50% + 1) ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

27. Qarorlar yig‘ilishda ishtirok etayotgan a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda, Raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

28. Quyidagi masalalar bo‘yicha qarorlar yig‘ilishda ishtirok etayotgan a‘zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi bilan qabul qilinadi:

- Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- Raisni muddatidan oldin vazifasidan ozod etish;
- Ittifoq faoliyatini tugatish.

29. Yig‘ilish bayonnomasi Ittifoq Kotibi tomonidan yuritiladi va Rais hamda Kotib tomonidan imzolanadi.

30. Ittifoq qarorlari talabalar uchun tavsiyaviy xarakterga ega. Universitet ma‘muriyati bilan kelishilgan qarorlar belgilangan tartibda amalga oshiriladi va ular uchun ikki tomon mas‘uliyat oladi.

31. Talabalar umumiy yig‘ilishi har o‘quv yilida kamida bir marta chaqiriladi. Umumiy yig‘ilish Ittifoq faoliyatining yillik hisobotini eshitadi, Raisni saylaydi va Nizomga o‘zgartirishlar kiritish masalasini ko‘rib chiqadi.

VIII bob. Ittifoq a'zoliciga qabul qilish va chiqarish tartibi

32. Ittifoq a'zosi bo'lish uchun shaxs:

- Universitet kunduzgi ta'lim talabasi bo'lishi;
- akademik o'zlashtirishi qoniqarli bo'lishi;
- amalda intizomiy jazoga ega bo'lmasligi;
- Ittifoq faoliyatida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

33. A'zolicikka qabul qilish uchun talaba Ittifoq Raisiga yozma ariza topshiradi. Ariza 10 (o'n) ish kuni ichida ko'rib chiqiladi va navbatdagi yig'ilishda tasdiqlash uchun kiritiladi.

34. Ittifoq a'zosiga a'zolik guvohnomasi (ID-karta) beriladi.

35. A'zolik quyidagi hollarda tugatiladi:

- shaxsiy ariza asosida;
- o'qishdan chetlatilganda yoki boshqa OTMga ko'chirilganda;
- universitetni tamomlaganda;
- ketma-ket uch marta uzrsiz sabab bilan yig'ilishlarda ishtirok etmaganda (uzrsiz sabab – oldindan Rais yoki Kotibga yozma xabardor qilmasdan kelmaslik);
- Ittifoq qarorlariga zid harakat qilganda;
- Universitet ichki tartib-qoidalarini jiddiy buzganda.

36. A'zolikni tugatish to'g'risidagi qaror Ittifoq yig'ilishida oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. A'zolikni tugatish qaroridan norozi bo'lgan talaba 10 ish kuni ichida Talabalar umumiy yig'ilishiga shikoyat arizasi bilan murojaat qilishi mumkin.

IX bob. Hamkorlik

37. Ittifoq quyidagi tuzilmalar bilan hamkorlik qiladi:

- Yoshlar tashkilotlari (jumladan, Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Yoshlar agentligi);
- Universitet kasaba uyushmasi;
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi;
- Fakultet dekanliklari;
- Boshqa oliy ta'lim muassasalari talabalar tashkilotlari;
- Davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari;
- Xalqaro tashkilotlar va xorijiy universitetlar talabalar birlashmalari.

X bob. Moliyalashtirish

38. Ittifoq faoliyati quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin:

- Universitet tomonidan ajratilgan mablag'lar;
- homiylik va xayriya mablag'lari;
- grant loyihalari mablag'lari;

- Universitet bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirlar va loyihalardan tushadigan mablag‘lar;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

39. Ittifoq faoliyatini moliyalashtirish bilan bog‘liq barcha mablag‘lar Universitet buxgalteriyasi orqali yuritiladi hamda ulardan foydalanish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

40. Mablag‘lardan foydalanishda oshkoralik va shaffoflik tamoyillariga rioya etiladi. Ittifoq budjetining shakllanishi va sarflanishi har chorakda Ittifoq yig‘ilishida muhokama qilinadi hamda uning hisobotlari Talabalar umumiy yig‘ilishida taqdim etiladi.

XI bob. Hisobdorlik va oshkoralik

41. Ittifoq har chorakda Universitet rahbariyatiga faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.

42. Rais yillik hisobotni Talabalar umumiy yig‘ilishida taqdim etadi.

43. Ittifoq faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Universitetning rasmiy axborot manbalari (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, Telegram kanallari) orqali e‘lon qilinadi.

44. Har bir talaba Ittifoq faoliyati, qarorlari va moliyaviy hisobotlari bilan tanishish huquqiga ega.

XII bob. Murojaatlar va nizolarni hal etish tartibi

45. Talabalar Ittifoq faoliyatiga oid shikoyat va takliflarni Ittifoq Raisiga yozma shaklda yoki elektron pochta orqali topshirishlari mumkin.

46. Murojaatlar olingan kundan boshlab 15 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi va natijasi murojaat qilgan talabaga yozma shaklda yetkaziladi.

47. Ittifoq a‘zolari o‘rtasidagi nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Kelishuv amalga oshmagan taqdirda, masala Ittifoq yig‘ilishiga kiritiladi.

48. Talabalar Ittifoq qarorlaridan norozi bo‘lgan taqdirda, Yoshlar masalalari bo‘yicha prorektorga murojaat qilish huquqiga ega.

XIII bob. Ittifoq faoliyatini tugatish tartibi

49. Ittifoq faoliyati quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

- Talabalar umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan (a‘zolarining kamida uchdan ikki qismi ovoz berganda);
- Universitet rektori buyrug‘iga asosan (Ittifoq faoliyati qonunchilikka zid bo‘lgan hollarda);
- Universitet tugatilganda.

50. Ittifoq tugatilganda uning mulki va mablag‘lari Universitet ixtiyoriga o‘tkaziladi.

XIV bob. Yakuniy qoidalar

51. Ushbu Nizom Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

52. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Talabalar umumiy yig'ilishi qarori asosida, ishtirok etayotgan a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ovoz berganda kiritiladi hamda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

53. Ushbu Nizomda tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

54. Ushbu Nizom 14 (o'n to'rt) bobdan va 54 (ellik to'rt) moddadan iborat.